

BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY – HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologik aktivlarning mohiyati, ular hisobini yuritishning me'yoriy-huquqiy asoslari hamda milliy standartlar bilan farqli tomonlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: biologik aktivlar, BHMS, MHXS, qishloq xo'jaligi mahsulotlari.

REGULATORY - LEGAL BASIS OF ACCOUNTING OF BIOLOGICAL ASSETS

Annotation: This article presents the essence of biological assets, the regulatory and legal bases of their accounting and their differences with national standards.

Key words: biological assets, national standards(NAS), MHSS, agriculture.

Hozirgi kunda mamlakatimiz o'zining oldiga yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini ustuvor masalalardan biri sifatida qo'ygan. Yashil iqtisodiyotni esa biologik aktivlar (hayvonlar, daraxtlar, o'simliklar)siz tasavvur etib bo'lmaydi. Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida biologik xossalarga ega bo'lgan aktilarni uchratishimiz mumkin. Shu sababli, hozirgi kunda ushbu biologik aktivlar hisobini to'g'ri tashkil etish, tan olish va baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bugungi kunning dolzarb masalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaror loyihasida 2030 yilda 829 aholi jon boshiga YaIM ikki baravarga oshirish, iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha yillik 6,4 foiz, kapital qo'yilmalar 9,9 foiz, eksport 9,6 foizni tashkil etishi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 1,8 martaga oshirish, shuningdek, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni standartlashtirishni amalga oshirish va milliy standartlarni xalqaro standartlarga moslashtirish ko'zda tutilgan.¹ Xususan,

¹ Gazeta.uz dagi "O'zbekistonda 2030-yilga kelib aholi jon boshiga YaIM 3 baravar ortishi ko'zda tutilmoqda" mavzusidagi maqola

biologik aktivlar va ulardan olinadigan mahsulotlar hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish eng muhim omillardan biridir.

Xalqaro miqyosida biologik aktivlar hisobi 41-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti “Qishloq xo'jaligi” deb nom olgan bo'lib, Standartning maqsadi qishloq xo'jaligi faoliyatiga tegishli buxgalteriya hisobi yondashuvini va ochib beriladigan ma'lumotlarni belgilashdan iborat. Mazkur standartda qishloq xo'jaligi faoliyati deyilganda xo'jalik sub'ekti tomonidan sotish yoki qishloq xo'jaligi hosiliga yoki qo'shimcha biologik aktivlarga aylantirish uchun biologik aktivlarning biologik transformatsiyasini va yig'imini boshqarishdan iborat ta'rifi berilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash kerakki, IAS №41 “Agriculture” standarti quydagi obyektlarlarga nisbatan qo'llaniladi.

1. Biologik aktivlar.
2. Ekilgan, o'rim – yig'im yoki yig'ish jarayonidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari.
3. Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq davlat subsidiyalari.

Lekin IAS №41 “Agriculture” standarti faqat hosilni yig'ib olishgacha amal qiladi. Shu paytdan boshlab ishlab chiqarish, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xom ashyo sifatida ishlatadigan ishlab chiqarish jarayonlari 2-"Tovar-moddiy zaxiralar" IAS qoidalari bilan tartibga solinadi.

Xalqaro miqyosida biologik aktivlar hisobi IAS №41 “Agriculture” standarti bo'yicha tartibga solinadi. Ushbu standartda Biologik aktivlarga, biologik aktivlar guruhiga ta'riflar berilgan:

✓ **Biologik aktiv** - bu tirik hayvon yoki o'simlikdir.

✓ **Biologik aktivlar guruhi** - bu o'xshash tirik hayvonlarning yoki o'simliklar yig'indisidir.

Korxonalar faoliyatida qatnashadigan biologik aktivlar IAS 41 “Agriculture” standartida ham to'liq bayon etilgan.(1-jadval)

1-jadval

IAS 41 “Agraculture” standarti bo’yicha biologik aktivlar tarkibiga kiruvchi mahsulotlar

<i>Biologik aktivlar</i>	<i>Qishloq xo’jaligi hosili</i>	<i>Yig’imdan so’ng qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlar</i>
<i>Qo’y</i>	<i>Jun</i>	<i>Yigirilgan ip, gilam</i>
<i>Daraxtzordagi daraxtlar</i>	<i>Yog’och</i>	<i>Yog’ochlar, taxtalar</i>
<i>Paxta</i>	<i>Yig’ilgan paxta</i>	<i>Kalava ip, kiyim</i>
<i>Shakarqamish</i>	<i>Yig’ilgan shakarqamish</i>	<i>Shakar</i>
<i>Chorva mollari</i>	<i>Sut</i>	<i>Pishloq</i>
<i>Cho’chqalar</i>	<i>Go’sht</i>	<i>Kolbasa mahsulotlari, Konservalangan go’shtlar</i>
<i>Choy butalari</i>	<i>Terilgan choy barglari</i>	<i>Choy</i>
<i>Tamaki o’simliklari</i>	<i>Terilgan tamakibarglari</i>	<i>Tamaki mahsulotlari</i>
<i>Uzum daraxtlari</i>	<i>Uzumlar</i>	<i>Vino</i>
<i>Mevali daraxtlar</i>	<i>Mevalar</i>	<i>Qayta ishlangan mevalar</i>

Ba’zi o’simliklar, masalan, choy butalari, uzum, moyli palma va kauchuk daraxtlari, odatda tashuvchi o’simlik ta’rifiga javob beradi va IAS 16 “Property, Plant and Equipment” ko’lamda amal qiladi. Biroq, hosildor o’simliklarda o’sadigan mahsulotlar masalan, choy barglari, uzumlar, yog’li palma mevalari, IAS 41 “Agraculture” doirasida amal qiladi. Bundan ko’rinadiki biologik aktivlar guruhlarini bo’yicha hisobni yuritilishni 2 ta IAS tartibiga solib turadi.

Qishloq xo’jaligi boshqa sanoat sohalariga qaraganda kichik-kichik korxonalar bilan, yuqori darajadagi mahsulot ishlab chiqarish hajimini olib borishi bilan farqlanadi. Qishloq xo’jaligi mahsuloti esa, turli xildagi biologik xususiyatga ega bo’lgan hayvonlar va o’simliklar hisoblanib, ularning yakuniy qiymatga

aylanishi uchun ko'p vaqt sarflanadi. Biroq, eng optimal bo'lgan bo'lgan, ya'ni zamonaviy texnologiyalardan va samarali ixtirolardan foydalanib esa, aktivning biotransformatsiya bo'lish strategiyasini qisqartirib, yuqori darajadagi foyda olishni ta'minlashimiz mumkin. Biologik aktivlar dastlabki sotib olinish qiymatida va yil oxirida haqiqiy qiymatida balansda ko'rsatilishi kerak.

Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq biologik aktivlar uchun alohida milliy standart ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Biologik aktivlar bu tirik hayvonlar va o'simliklardir. Xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish maqsadida 4-son BHMSlari tarkibida zahira sifatida kiritilgan hayvonlarni zahira tarkibidan chiqarib, ularni biologik aktiv sifatida hisobga olish tartibini belgilaydigan alohida standartga kiritish kerak, deb o'ylaymiz. Shu asosda milliy standartdagi zahiralar tarkibidan "boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsiz qilingan katta yoshdagi qoramollar, sotish uchun chetdan qabul qilingan qoramollar"ni olib tashlash va ularni biologik aktivlar sifatida tan olish tamoyillarini qabul qilish kerak.

Respublikamizda biologik aktivlar hisobi 5-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti "Asosiy vositalar" standarti orqali yuritiladi. Ushbu standart biologik aktivlarning faqat asosiy vosita tarkibiga kiruvchilarini hisobga oladi. Jumladan, ushbu standartning 4-xatboshida biologik aktivlar tarkibiga kiruvchi ko'p yillik ko'chatlarga qilingan kapital qo'yilmalar har yili butun ishlar majmui yakunlangan sanadan qat'iy nazar, hisobot yilida foydalanishga qabul qilingan asosiy vositalarga tegishli xarajatlar summasida asosiy vositalar tarkibiga kiradi.

Ushbu standartda asosiy vositalar tarkibiga kiruvchi boshqa aktivlar to'g'risida umuman ma'lumotlar yo'q. Lekin asosiy vositalar tarkibiga kiruvchi biologik aktivlarning o'zi ham 2 ta katta guruhga bo'linadi:

- Hayvonlar (asalarilar, baliqlar, cho'chqalar, chorva mollari, sut va chorva mollari, qo'ylar va hokazolar).²

- O'simliklar (mevali daraxtlar, ko'p yillik o't o'lanlar va hokazolar).

² 5-сон БҲМС "Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (5-сон БҲМС) «Асосий воситалар»ни тасдиқлаш тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг буйруғи 20.01.2004 йилда рўйхатдан ўтган, рўйхат рақами 1299, кучга кириш санаси 30.01.2004

Bundan ko'rinadiki ushbu standart biologik aktivlar hisobini xususiyatlarini to'liq ochiq lab berolmaydi. Buxgalteriya hisobining 21- sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" milliy standartida biologik aktivlarning hisobini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Xususan, ushbu standartda "Ishchi va mahsuldor hayvonlar" schyotida ishchi kuchi sifatida foydalaniladigan ishchi hayvonlar - otlar, ho'kizlar, tuyalar, xachir va eshaklar va boshqa ishchi hayvonlar (shuningdek, yuk transport vositasi sifatida foydalaniladigan hayvonlar) hamda mahsulot (nasl, sut, jun va boshqalar) beradigan hayvonlar - sigirlar, biyalar, qo'ylar, echkilar va boshqalar hisobga olinadi. "Ko'p yillik o'simliklar" schyotida ko'kalamzorlashtirish, dekoratsiya, meva-rezavor daraxtlar va o'simliklar, yashil devorlar va boshqalar hisobga olinadi deya e'tirof etilgan. Biroq ushbu standart ham biologik aktivlarni hisobda adolatli qiymatda ochib berilishi va biologik aktivlarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berilmagan. Jumladan, ularning boshlang'ich qiymatini aniqlanishi, qayta baholanishi, ularga qilingan xarajatlarning to'g'ri hisobda aks ettirish uchun yetarlicha asosga ega emas.

Tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga kiruvchi biologik aktivlar ham ham Respublikamizdagi buxgalteriya hisobi standartlarida ochiq lab berilmagan. Biologik aktivlarga aniq bir ta'rif ishlab chiqilmagan. Biologik aktivlarning xossalari, xususiyatlari va ularning turlari me'yoriy huquqiy hujjatlarda ochiq lab berilmagan.

Biologik aktivlar qishloq va o'rmon xo'jaligi tarmog'idagi korxonalar faoliyatining asosiy qismi biologik aktivlarni sotish yoki ulardan foydalanish orqali vujudga keladi. Biologik aktivlarning moliyaviy hisobotlarda ochiq lab berilishi bo'yicha ham biror bir adabiyotlarimizda yoki me'yoriy – huquq hujjatlarimizda qarashlar mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan qonunchilikka ko'ra biologik aktivlar hisobini tartiga solib turuvchi me'yoriy- huquqiy asos mavjud emas. Lekin

mamlakamizda faoliyat olib borayotgan qishloq xo'jalik korxonalarini, oromgohlar, tabiiy qo'riqxonalar faoliyatini bevosita biologik aktivlardan foydalanish yoki ularni yetishtirish va qayta ishlash orqali amalga oshiradilar. Ushbu faoliyatlarni amalga oshirishda bir qator biologik aktivning turlarini qo'llashadi va ularni hisob obyektini sifatida hisobini yuritadilar.

Korxonalar faoliyatida foydalaniladigan biologik aktivlarni o'z navbatida 2 ta katta guruhga bo'lishimiz mumkin.

Ushbu aktivlar qishloq xo'jaligi korxonalar faoliyatida alohida hisobga olib borishni taqazo etadi. Xususan, oromgohlar va qo'riqxonalar asosiy faoliyatini manzarali daraxtlar tashkil etgan tabiiy muhitdan foydalanish yoki foydalanishga berish (ijara) orqali daromad oladilar. Ushbu ko'p yillik butalar va daraxtlar o'z xususiyatidan kelib chiqib har yili meva beradi. Bu o'z o'rnida daraxtlarlardan mevalarini ikkilamchi mahsulot sifatida tan olishni va ularni buxgalteriya hisobida tan olishni talab etadi. Shuni hisobga olgan holda, mamlakatimizda amalada bo'lgan buxgalteriya hisobining milliy standart (BHMS)larida ushbu mahsulotlarning hisobda aks ettirilishi, ularning tannarxini aniqlanishi bayon etilmagan.

O'zbekiston Respublikasida biologik aktivlar hisobini tashkil etishni jarayonida birinchi navbatda biologik aktivlarning hisobini tartibga solib turuvchi me'yoriy – huquqiy asoslarni ishlab chiqishni yoki mavjudlarini takomillashtirishni taqazo etadi. Biologik aktivlar tarkibiga kiruvchi aktivlarni korxonadan xususiyatidan kelib chiqib asosiy vositalar tarkibiga kiruvchi va ulardan olinadigan mahsulot (TMZ) lar turlarini to'liq ko'rsatishi lozim. Asosiy vositalar tarkibiga kiruvchi biologik aktivlarni dastlabki qiymatini tashkil etuvchi xarajatlarning aniq tarkibini ochiqlash va ko'p yillik ekinlarning dastlabki qiymatini shakillantirish davrini aniq ko'rsatish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. 41-son MHXS "Qishloq xo'jaligi"*
- 2. 2-son MHXS "Zahiralar"*
- 3. 4-son BHMS "Tovar-moddiy zahiralar"*

4. 5-son BHMS “Asosiy vositalar”
5. С. Ташназаров. Молиявий бухгалтерия ҳисоби 1 дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ нашриёти, 2023 - 438 бет.
6. S.N. Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish Monografiya. 2018 y. “O‘zbekiston” 2018 yil, - 119 b